Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321029

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

O'ZBEKISTONDA ISLOM TARAQQIYOT BANKI BILAN IQTISODIY – MOLIYAVIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Ortig'aliyeva Farangiz-bonu Ravshanbek qizi
Toshkent davlat Iqtisodiyot unverstiteti " MOLIYA" kafedrasi " Davlat moliyasi va Xalqaro moliya" yo'nalishi MGF01-1 guruh magistratura talabas

Annotatsiya. Ushbu tezisda muallif tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida Islom taraqqiyot bankining vujudga kelishi, mamlakatar bilan o'zaro munosabatlari va aloqalari, Islom taraqqiyot bankining vazifa va maqsadlari, O'zbekistonga Islom taraqqiyot bankining kirib kelishi, rivojlanish bosqichlari, vazifa va maqsadlari haqida ma'lumot beriladi. Islom taraqqiyot banki va Mamlakatimiz iqtisodiyotida resurslardan samarali foydalanish, davlat-xususiy sherikchlik, kredit stavkalarining yuqoriligi bilan bog'liq masalalar va ta'lim va sog'liqni saqlash, yashil iqtisodiyot, raqamli infratuzilma va hududiy integratsiyani rivojlantirish kabi istiqbolli loyihalar ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda bu bank bilan amalga oshirilayotgan moliyaviy loyihalar va ularning kelajakdagi istiqbolli natijalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ITB, xalqaro moliyaviy tashkilot, ustav kapitali, modernizatsiya, rekonstruksiya, investitsiya, iqtisodiy hamkorlik, davlat-xuxusiy sherikchilik, xususiy sektor, foiz stavkasi.

Bugungi kunda Xalqaro moliya tashkilotlaring davlat oldidagi ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy ro'li kundan kunga ortib bormoqda. Bu tashkilotlar orqali davlatlar o'z iqtisodiy tizimlarini yanada rivojlantirib, kengaytirib, barqarorlashtirish va xalqaro darajada raqobatbardosh bo'lishiga imkon yaratib bermoqda va o'z navbatida ularning faoliyati ham ortib bormoqda. Mana shunday Xalqaro moliya tashkilotlaridan biri Islom Taraqqiyot Banki hisoblanadi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) 1975 – yilda IHT mamlakatlari moliya vazirlari yig'ilishining qaroriga ko'ra tashkil etilgan. ITBning shtab-kvartirasi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan. ITB ning Hududiy ofislari 1994 – yili Rabot(Marokash)da, shu yili Kuala-Lumpur(Malayziya)da, 1997 – yili Olma-Ota(Qozog'iston)da va 2008 – yili Dakar(Senegal)da ochildi.Bank shuningdek 12 ta a'zo mamlakatda mahalliy vakolatxonalarga ega: bular Afg'oniston, Ozarbayjon, Bangladesh, Gvineya, Indoneziya, Eron, Nigeriya, Pokiston, Serra-Leona, Sudan, O'zbekiston va Yamandir[149]

Islom Taraqqiyot banki xalqaro moliya tizimida islomiy rivojlanishning muhim bir qismi sifatida qaraladi va moliyaviy qoidalarni tatbiq etish orqali global iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. ITBning asosiy vazifasi unga a'zo bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni shariatga muvofiq qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu vazifalarni quyidagilar orqali amalga oshiradi;

- Moliyaviy yordam ko'rsatish vazifasi orqali, ya'ni,Islom taraqqiyot banki rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar berish yoki investitsiya kiritish orqali iqtisodiy loyihalarni moliyalashtiradi,
- Texnik yordam ko'rsatish vazifasi orqali bank loyihalarni ishlab chiqishda, rejalar va islohotlarni amalga oshirishda texnik maslahatlarni beradi,
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifasi orqaliijtimoiy infrotuzilma, ta'lim, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash kabi sohalarga yordam beradi,
- Islomiy moliya vazifasi orqali bank islomiy moliya tamoyillariga asoslangan moliyaviy resurslar taklif etadi,

[149] www.isdb.org O'zbekiston Respublikasi Milliy Ilmiy elektron portali

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ortig'aliyeva Farangiz-bonu Ravshanbek qizi (2024). O'zbekistonda Islom taraqqiyot banki bilan iqtisodiy – moliyaviy munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321029
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

- Xalqaro hamkorlik vazifasida Islom Taraqqiyot Banki xalqaro moliya institutlari, hukumatlar va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatadi.

Hozirda Islom Taraqqiyot Bankiga 57 ta mamlakat a’zo hisoblanadi. A’zo bo‘lishlikning asosiy shartlaridan biri a’zo bo‘layotgan davlat Islom Hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lgan bo‘lishi kerak va boshqaruv kengashi kapitaliga obuna bo‘lishi to‘lash shartlarini belgilash huquqiga ega bo‘ladi. O‘zbekiston ITBga 2003 – yil 27 – avgust sanasida a’zo bo‘lgan. Ustav kapitalining ulushi 13,4 mln ID va bu ITB umumiy ustavi kapitalining 0,03% iga to‘g‘ri kelib, ustav kapitalining ko‘rsatkichi bo‘yicha 46 - o‘ringa tog‘ri kelmoqda. Malumot sifatida qo‘shni davlatlarning ustav kapitalidagi ulushi va boshqa ma’lumotlarni quyidagi 1-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

Bundan tashqari Islom Taraqqiyot Bankiga oldida O‘zbekiston bilan qo‘yidagi moliyaviy muammolarni bartaraf etish kabi muhim jihatlar mavjud;

✓ **Resurslardan samarali foydalanish masalasi:** O‘zbekiston ITB bilan ko‘plab loyihalarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, ba’zan resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki nazoratning yetarli emasligi moliyaviy samaradorlikka salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun loyihalar monitoringini kuchaytirish, moliyalashtirishning aniq maqsadli yo‘nalishini ta’minlash zarur.

✓ **Kredit foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi:** ITB tomonidan taqdim etilayotgan kreditlar shartlari, xususan foiz stavkalari, xususiy sektor uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Davlat tomonidan foiz stavkalarini subsidiya qilish yoki kreditlarni yanada qulayroq shartlarda qayta kelishish orqali bu muammoni yengillatish mumkin.

✓ **Davlat-xususiy sheriklikning murakkabligi:** Mazkur modelning samarali ishlashi uchun xususiy sektor ishonchini oshirish zarur. Buning uchun qonunchilikni takomillashtirish, xavflarni adolatli taqsimlash va shartnoma shaffofligini ta’minlash kerak.

✓ **Qishloq hududlarida moliyaviy yetishmovchilik:** ITB kreditlaridan qishloq hududlarida foydalanish ko‘lami cheklangan bo‘lishi mumkin. Moliyaviy dasturlarni hududiy diversifikatsiyalash orqali bu muammoni hal qilish lozim.

✓ **To‘rtinchidan, moliyaviy savodxonlik pastligi**. Islomiy moliya tizimlarining afzalliklarini tushuntirish va tadbirkorlar o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish kerak. ITBning o‘quv dasturlarini joriy qilish bu muammoni bartaraf etadi.

Davlatlar	Loyihalar soni	Bajarilgan loyihalar soni	Moliyalashtirish summasi(mln $)	Ustavdagi ulushi(mln ID)	Jami ustavdagi ulushi%da
Qozog‘iston	74	56	1700	54	0,1
Qirg‘iziston	80	62	559	25,8	0,05
Tojikiston	104	72	766	18,2	0,04
O‘zbekiston	162	74	3900	13,4	0,03
Avg‘oniston	58	40	182	9,9	0,02

Turkmaniston	30	17	1200	5	0,01

1-jadval. ITB ustav kapitalidagi Markaziy Osiyo mamlakatlarining ulushi.[150]

Jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘rishimiz mumkinki O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida ustav kapitali yuqori bo‘lmasligiga qaramay qabul qilingan loyihalar va ularning bajarilganligi soniga o‘ra qolganlardan yuqori va moliyalashtirish summasi ham Qozog‘istonnikidan 2,2 barobar ko‘p.

Bugungi kunga qadar O‘zbekiston ITB bilan hamkorlikda bajarilgan ishlari va sohalari keng ko‘lamli. Ularga elektroenergiyani modernizatsiya qilish, sug‘orish kanallarini tiklash, qishloq joylarida uy-joy qurish, kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish, avtomobil yo‘llarini qurish, ta’lim sohasiga investitsiya kiritish, sog‘liqni saqlash kabi bir qator sohalarda ko‘rishimiz mumkin. Loyihalar ko‘lamini yanada kengaytirish hamda istiqbolli hamkorlikni davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 604-son Qarori bilan Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida “2024 — 2028-yillarda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish ”[151] loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Qarorni ko‘rishimiz mumkin. 2024 – 2028 – yillarga mo‘ljallangan loyihaga ko‘ra nodavlat maktabgacha ta’lim muassalarini davlat-xususiy sherikchilik asosida rivojlantirish uchun ITB tomonidan 27,54 million AQSH dollari moliyalashtirilgan. Loyihaning maqsadi esa maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish va xususiy sektorni sohaga kengroq jalb qilish orqali nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalar sonini oshirish ko‘zda tutilgan. Moliyalashtirish uchun beriladigan kreditlar tumanlarda 10 yil muddatga 2 yillik imtiyozdavr bilan 14 % stavkada Toshkent shahrida esa 18 % yillik Stavka bo‘yicha qaytariladi va xususiy sherik tomonidan to‘lanadigan foiz stavkasining 1%i xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklarida qoldiriladi, qolgan qismi esa respublika budjetiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, yurtimizda kelgusida Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlikda yana bir qator sohalar, ya’ni yirik loyihalarni imtiyozli moliyalashtirish, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan texnik va gumanitar yordamlarni jalb qilish, o‘rta muddatli sherikchilik loyihalarida birgalikda hamkorlik ishlari amalga oshirilishi kutilmoqda.

Mazkur tahlillardan ko‘rinib to‘ribdiki, ITB bilan hamkorlikni yanada yazshilash uchun qo‘yidagi yangi yo‘nalishlarni tashkil etishimiz kerak;

1. Ta’lim va sog‘liqni saqlashda innovatsion loyihalar: Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga qaratilgan loyiha kabi dasturlarni kengaytirib, ITB bilan umumta’lim va kasbiy ta’lim sohalarida hamkorlik qilish mumkin.

2. Yashil iqtisodiyot va ekologik loyihalar: Suv resurslarini tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik loyihalar ITB bilan kelgusidagi hamkorlikning yangi yo‘nalishlari bo‘lishi mumkin.

3. Raqamli infratuzilma rivoji: ITB mablag‘lari yordamida davlat xizmatlarini raqamlashtirish va iqtisodiyotning turli sohalariga axborot texnologiyalarini jalb qilish ahamiyatli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

[150] www.isdb.org O’zbekiston Respublikasi Milliy Ilmiy elektron portal ma’lumotlaridan tayyorlangan.

[151] https://lex.uz/uz/docs/-7120156 O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi

4. Hududiy integratsiyani kuchaytirish: ITBning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun qo‘shma loyihalariga qo‘shilish orqali O‘zbekiston o‘zining iqtisodiy salohiyatini oshirishi mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning ITB bilan hamkorligi hozirgi vaqtda keng qamrovli va samarali bo‘lib, turli sohalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, elektroenergiya, qishloq joylardagi infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida amalga oshirilgan loyihalar mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda.

Kelgusida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va loyihalarni kuzatish tizimini kuchaytirish.

2. Kredit stavkalarini yanada moslashuvchan qilish yoki subsidiyalarni kengaytirish.

3. Yangi yo‘nalishlar – yashil iqtisodiyot, raqamli infratuzilma va hududiy integratsiya loyihalarini joriy etish.

Shunday qilib, ITB bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishiga zamin yaratadi va xalqaro maydonda uning mavqeini mustahkamlaydi.

O‘ZBEKISTON IQTISODIYATINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA’MINLASH SHAROITIDA FAN PEDAGOGIKA TA’LIM VA INNOVATSIYALARNING JIHATLARI

Sa’dullaeva Mahfuza Husenovna
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o‘qtuvchisi
Kidirbaeva Gulima Malik qizi
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Qozoq tili adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida ta’lim, pedagogika va innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyatini yoritadi. Ta’lim va pedagogika sohasi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi. Innovatsiyalar esa pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va mamlakat iqtisodiyotini texnologik jihatdan rivojlantirish uchun zarur vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar:O‘zbekiston iqtisodiyoti, innovatsion yondashuv, modernizatsiya, fan, pedagogika, ta’lim, innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar, kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi, barqarorlik, barqaror rivojlanish, integratsiya pedagogik texnologiyalar.

Annotation: This topic highlights the significance of education, pedagogy, and the implementation of innovations in the process of modernizing and ensuring the sustainable development of Uzbekistan’s economy. The fields of education and pedagogy provide the preparation of personnel equipped with modern knowledge and competencies, which are essential for the successful execution of economic reforms. Innovations serve as a crucial tool for effectively organizing pedagogical processes and fostering technological advancement within the country's economy.

Keywords: Uzbekistan’s economy, innovative approach, modernization, science, pedagogy, education, innovations, economic reforms, workforce development, education system, sustainability, sustainable development, integration, pedagogical technologies.